

**Kreditning to'liq qiymati
miqdori:**

_____ (_____) foiz
so'z bilan

TA'LIM KREDITI BERISH TO'G'RISIDAGI _____ – SONLI KREDIT SHARTNOMASI

20__-yil "___"-_____

Keyingi o'rinlarda **"Bank"** deb ataluvchi "Mikrokreditbank" ATB nomidan _____-yil "___"-_____ da berilgan _____-sonli ishonchnoma asosida ish olib boruvchi "Mikrokreditbank" ATB _____ boshqaruvchisi _____ bir tomondan, keyingi o'rinlarda **"Kredit oluvchi"** deb ataluvchi _____ (Pasport ma'lumotlari: _____ № _____, _____ tomonidan _____-yil "___"-_____ da berilgan) ikkinchi tomondan, uchinchi tomondan **"Sherik qarzdor"** deb ataluvchi _____ (Pasport ma'lumotlari: _____ № _____, _____ tomonidan _____-yil "___"-_____ da berilgan) ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAQSADI

1.1. Bank o'z vakolati doirasida **Kredit oluvchining** to'lov kontrakt asosida _____ da taxsil olishi uchun mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida kredit oluvchiga _____ (_____ so'z bilan) oy muddatga _____ (_____ so'z bilan) foiz ustama hisoblash sharti bilan _____ (_____ so'z bilan) so'm miqdorida kredit mablag'i ajratadi.

Xotin-qizlarga ajratiladigan ta'lim kreditlari bo'yicha hisoblanadigan foiz to'lovlari bankka O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-323-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi 457-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida o'qishi uchun ta'lim kreditlarini ajratish tartibi to'g'risida" gi nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi (bundan buyon matnda – "Jamg'arma") mablag'lari hisobidan to'liq qoplab boriladi.

1.2. Kredit mablag'lari 202__-202__-o'quv yili uchun _____ (_____ so'z bilan) so'm miqdorida to'lab beriladi.

1.3. Kredit faqatgina ta'lim muassasasida o'qish uchun kontrakt summasini to'lab berishga ajratiladi.

1.4. Kredit oluvchi tomonidan olingan kreditning hisobini yuritish uchun Bank

BANK _____
(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____
(imzo)

SHERIK QARZDOR _____
(imzo)

shartnoma imzolangan kun unga tegishli ssuda hisob raqamini ochadi.

1.5. Kreditdan foydalanish davrida Kredit oluvchi bank kreditining muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlik, ta'minlanganlik va maqsadli ishlatilishi tamoyillariga to'liq amal qilish majburiyatini oladi.

1.6. Ta'lim kreditlari bo'yicha foiz stavkasi o'zgaruvchan bo'lib, foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda pasayadi, oshirilgan taqdirda esa o'zgarishsiz qoladi.

Bunda, foiz to'lovlaridagi o'zgarishlar Markaziy bank asosiy stavkasining pasaytirilishi amalga kiritilgan kundan boshlab hisob-kitob qilinadi.

2. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

2.1. Kredit bo'yicha asosiy ssuda qarzi va foiz to'lovlarni to'liq to'lash muddati shartnoma imzolangan kundan hisoblanadi, kredit uchun foizlarni hisoblash va to'lash ta'lim tashkilotiga mablag'lar o'tkazilgan sanadan boshlab, asosiy qarzni qaytarish esa kredit oluvchi tomonidan ta'lim tashkilotida ta'limning ushbu turi bo'yicha o'qishning rasmiy belgilangan muddati tugallangandan so'ng yettinchi oydan boshlab amalga oshiriladi.

2.2. Shartnomaning amal qilish muddati kredit shartnomasi imzolanganidan so'ng ____ (____ *so'z bilan* ____) oy.

3. BANK MAJBURIYATI

3.1. Kredit oluvchining shaxsiy yozma topshirig'iga asosan ochiq kredit liniya bo'yicha o'quv yili mobaynida o'qish uchun yillik to'lovning to'liq miqdorini belgilangan tartibda, teng ulushlarda to'rt qismga bo'lish yo'li bilan ta'lim muassasasining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqamiga o'tkazib berish.

Tijorat banklari kredit oluvchining *yoza arizasiga* asosan to'lov-kontrakt asosida o'qish haqidagi shartnomasida (kontraktida) nazarda tutilgan hollarda o'qishning yarim yil yoki to'liq bir yil uchun to'lov summasini biryo'la amalga oshirishi mumkin.

3.2. Ta'lim muassasasi tomonidan kontrakt summasiga o'zgartirish kiritilgan holatda ochilgan kredit liniya hisobidan ko'shimcha kelishuv rasmiylashtirish.

3.3. Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi imzolangan kundan boshlab, har oyning ____ sanasida berilgan kredit bo'yicha foiz to'lovlarni hisoblash.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash bo'yicha kiritiladigan o'zgarishlar va kredit shartnomasini o'zgaradigan bandlari bo'yicha qarz oluvchiga xabar berish.

4. KREDIT OLUVCHI VA SHERIK QARZDORNING MAJBURIYATI

4.1. Bankka kredit oluvchi quyidagi ta'minot turini taqdim etishi lozim:

- kredit ta'minoti sifatida _____

____ da _____ lavozimida ishlovchi va _____ shahar/viloyati, _____ tumani, _____ da istiqomat qiluvchi fuqaro

____ (Pasport ma'lumotlari: № _____, _____ yilda, _____ shahar/viloyat _____ tumani IIB tomonidan berilgan) ning _____ (____ *so'z bilan* ____) so'mni tashkil etuvchi kafilligi taqdim etiladi;

• _____

BANK _____
(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____
(imzo)

SHERIK QARZDOR _____
(imzo)

(boshqa ta'minot turi taqdim etilganda yoziladi)

Bunda, kredit ta'minotining bank tomonidan qabul qilinadigan qiymati "Mikrokreditbank" ATB tizimida kredit yig'ma jildlarini shakllantirish va hujjatlarni rasmiylashtirish reglamenti talablari asosida belgilanadi.

4.2. Bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklar sug'urta idoralarida sug'urtalangan va kredit shartnomasi tuzish davrida amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

4.3. Bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklarning yaxlitligini saqlash yuzasidan to'liq moddiy javobgar bo'lishi, zarur hollarda jinoiy javobgarlikka ham tortilish tahdidini anglagan holda, (kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlar to'liq to'langunga qadar) ularni sotib yubormasligi va uchinchi shaxsga bermasligi shart.

4.4. Kredit oluvchi/Sherik qarzdorning qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim.

4.5. Kredit oluvchi/Sherik qarzdorning kredit ajratishni ko'rib chiqish vaqtida bank va boshqa kredit tashkilotlaridan avval olingan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmasligi lozim.

4.6. Qabul qilingan majburiyatlarga asosan (bank va mijoz tomonidan tasdiqlangan asosiy ssuda va foizlarni qaytarish jadvaliga asosan) kreditning asosiy qarzi va foiz to'lovlarini ____ oy muddat ichida qaytarilishi lozim.

Xotin-qizlarga ajratiladigan ta'lim kreditlarida kredit oluvchi tomonidan faqatgina kreditning asosiy qarzi qaytariladi.

4.7. Kafil bo'lmaslik va o'z mas'uliyatiga boshqa kreditor va pul majburiyatlarini olmaslik.

4.8. Mazkur shartnomaga ilova qilingan kredit qaytarish jadvaliga asosan kredit foizi va asosiy qarzini belgilangan muddatlarda to'lash.

4.9. "Kredit oluvchi" va "Sherik qarzdor"ga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi, grafik bo'yicha qarzdorligi, asosiy qarz va unga hisoblangan barcha foiz to'lovlari, shuningdek oshirilgan foizi va muddati o'tgan foizga hisoblangan penya qarzdorliklari o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, mazkur qarzdorliklar hamda to'lovlarning kredit oluvchi va sherik qarzdorning O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada ish haqi (pensiya) va boshqa maqsadlar bo'yicha ochilgan plastik karta(lar)idan hamda omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag'laridan akseptsiz avtomatik ravishda bank tomonidan yechib olinishiga rozilik bildirish va qarshilik qilmaslik.

Agarda akseptsiz undirib olish "Kredit oluvchi" va "Sherik qarzdor"ga tegishli bo'lgan xorijiy valyutada ochilgan bank plastik karta(lar)si va omonat hisobvaraqlariga nisbatan qo'llanilsa, kredit bo'yicha barcha qarzdorliklar va to'lovlar yuzasidan zarur mablag'larning yechib olinadigan sanada Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda bank tomonidan yechib olinishiga rozi bo'lish va bunga qarshilik qilmaslik.

4.10. Sherik qarzdorning ish joyi hamda bank plastik kartasiga (keying o'rinlarda - BPK) xizmat ko'rsatuvchi bank o'zgarganda, 10 ish kunidan kechikmasdan "Bank"ni xabardor qilish va dasturiy ta'minotga biriktirish maqsadida BPK raqami to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

4.11. O'qish davrining keyingi bosqichlari bo'yicha to'lov amalga oshirilishi uchun ta'lim muassasasida o'qiyotganini tasdiqlovchi ma'lumotnoma taqdim etish.

4.12. Agar talaba o'qish davri tugamasdan talabalar safidan chiqarilsa ____ oy muddatda ta'lim krediti va unga qo'shilgan foizlar bo'yicha qarzlarni muddatidan oldin to'liq qaytarish.

BANK _____
(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____
(imzo)

SHERIK QARZDOR _____
(imzo)

4.13. Agar talaba o'qish davri tugamasdan talabalar safidan chiqarilsa, rektorning buyrug'i chiqqan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida bu haqda bankka xabar berish.

4.14. Talabani talabalar safidan chiqarilishi kredit oluvchi tomonidan bankka o'z vaqtida ma'lum qilinmagan taqdirda, ushbu davr uchun hisoblangan foizlarni bankka to'lab berish.

5. BANK HUQUQLARI

5.1. Kreditdan foydalanganlik uchun to'lanadigan foiz to'lovlar 30 kundan ortiq davrda to'lanmasdan muddati o'tkazib yuborganlik hollari sodir etilgan holatda kreditning qolgan qismini foiz to'lovdan qarz to'liq to'lab berilgunga qadar ajratishni to'xtatib qo'yish.

5.2. Kreditdan foydalanganlik uchun to'lanadigan foiz to'lovlari o'z vaqtida qaytarilmay bankka muammo paydo qilgan hollarda, to'lov kontraktning navbatdagi qismi bo'yicha yoki o'qishning keyingi yillari uchun kredit hisobidan to'lovlarni amalga oshirishni to'xtatish.

5.3. Kredit oluvchi tomonidan kredit muddatida qaytarilmagan taqdirda qaytarilmagan asosiy qarz summasi bo'yicha foiz to'lov darajasini oshirish:

- kredit summasi muddati o'tgan qarzdorlikka chiqarilgandan so'ng kredit shartnomasida ko'rsatilgan foiz to'lovi darajasidan 1,5 baravar ko'p miqdorda hisoblanib boriladi.

5.4. Kreditning asosiy qarzi yoki foiz to'lovlar bo'yicha 90 kundan ortiq qarzdorlik yuzaga kelganda, "Garov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan Sherik qazdorning, kafilning doimiy daromadlari va mol-mulkiga, shuningdek garovga olingan mulk hisobidan undirish bo'yicha sud tartibida yoki qonunchilikda belgilangan boshqa usullar muddati o'tgan kredit qarzdorligini qaytarilishiga qaratadi.

5.5. Kreditlash jarayonida:

- ushbu kredit shartnomasiga taalluqli ta'minot tovar moddiy boyliklarining butligini tekshirish;

- kafil tashkilotning moliyaviy faoliyati bo'yicha birlamchi buxgalterlik hujjatlari va hisobotlarini, kafil jismoniy shaxsning daromadlari yetarliligi, kredit tarixi va qarz yuki ko'rsatkichlarini o'rganish.

5.6. Ta'lim kreditlari kredit shartnomasida belgilangan tartibda kreditni ta'minlash ob'ektini tasarruf etish yo'li bilan kredit bo'yicha qarz summasini undirib olish. Agar kreditning qaytarilishini ta'minlash sifatida ta'minlashning boshqa shakllari takdim etilgan bo'lsa, bank belgilangan muddatda qaytarilmagan ta'lim kreditini ular hisobiga o'z vaktida qaytarilish choralari ko'rish.

5.7. Kredit ajratilishidan oldin "Kredit oluvchi" va "Sherik qarzdor" va "Kafil"ni mazkur shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha SMS xabarnoma xizmatiga va kreditlar avto to'lov tizimiga ulash.

5.8. "Bank", "Kredit oluvchi" va "Sherik qarzdor"ga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi, grafik bo'yicha qarzdorligi, asosiy qarz va unga hisoblangan barcha foiz to'lovlari, shuningdek oshirilgan foizi va muddati o'tgan foizga hisoblangan penya qarzdorliklari o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, mazkur qarzdorliklar hamda to'lovlarni kredit oluvchi va sherik qazdorning O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada ish haqi (pensiya) va boshqa maqsadlar bo'yicha ochilgan plastik karta(lar)idan hamda omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag'laridan akseptsiz avtomatik ravishda yechib oladi.

Agarda akseptsiz undirib olish "Kredit oluvchi" va "Sherik qarzdor"ga tegishli bo'lgan xorijiy valyutada ochilgan bank plastik karta(lar)si va omonat hisobvaraqlariga nisbatan qo'llanilsa, bank kredit bo'yicha barcha qarzdorliklar va to'lovlar yuzasidan zarur mablag'larni yechib olinadigan sanada Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha

BANK _____

(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____

(imzo)

SHERIK QARZDOR _____

(imzo)

konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda yechib oladi.

6. KREDIT OLUVCHI VA SHERIK QARZDORNING HUQUQLARI

6.1. Ushbu shartnomada qayd etilgan shartlarda, summada va muddatlarda kredit olish.

6.2. Bank bilan kelishgan holda, kredit shartnomasi o'zgartirilishi, bekor qilinishi yoki uzaytirilishi mumkin, bunda ikki taraflama qo'shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi. Shartnoma bekor qilingan holda, kredit oluvchi bank ssudasi va undan foydalanganlik uchun foiz to'lovini muddatidan oldin to'liq qaytarishi lozim.

6.3. Kredit oluvchining doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari (otanas, aka-ukasi, opa-singlisi, eri yoki xotini) yoki boshqa uchinchi shaxslar ta'lim krediti shartnomasida "Sherik qarzdor" sifatida qatnashishi mumkin.

6.4. Foydalangan ssuda uchun foiz to'lovidan qarzi bo'lmagan holda, ssuda bo'yicha qarzini muddatidan oldin qoplash.

6.5. ***Yozma arizaga*** asosan to'lov-kontrakt asosida o'qish haqidagi shartnomasida (kontraktida) nazarda tutilgan hollarda o'qishning yarim yil yoki to'liq bir yil uchun to'lov summasini biryo'la amalga oshirilishi bo'yicha bankka murojaat qilish.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

7.1. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

7.2. Taraflar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

7.3. Ushbu Shartnoma Taraflarning har biri boshqa Tarafning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

7.4. Agar Taraflardan biri mazkur shartnomada keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilgani yoki buzilishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni 10 (o'n) bank ishi kuni davomida yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomada Taraflar tomonidan ushbu shartlar va qoidalarining buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, shuningdek amaldagi qonunchilik talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

7.5. Bir Taraf korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganda va yoki boshqa Taraf huquqbuzarlik sodir bo'lmagan yoki sodir bo'lmasligi haqida o'rnatilgan muddatda Yozma xabarnoma olmagan taqdirda, boshqa Taraf shartnomani bekor qilish haqida Yozma xabarnoma jo'natgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Mazkur shartlar asosida shartnomani bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan Taraf, shartnomani bekor qilish natijasida vujudga kelgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

7.6. Shartnomaning taraflari korrupsiyani oldini olish choralarini ko'rish tartib-taomilarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda taraflar korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar.

7.7. Taraflar ushbu Shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan

Taraf uchun ham oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va / yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan va majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda barcha kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

8.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Bankning ushbu shartnoma asosida kredit ajratgan hududiy bo'linmasi joylashgan hududdagi sudga murojaat qilish orqali hal etiladi (Shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik).

8.3. Bank kredit mablag'larining muddatida qaytarilmaganligi hamda ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganligi natijasida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishning quyidagi usullaridan foydalanishi mumkin:

- Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi, kafil)ni kredit va foiz to'lovlarini amalga oshirishi to'g'risida og'zaki va yozma ravishda ogohlantirish;

- Qarz oluvchining bankdagi barcha hisobvaraqlaridan (depozit, bank karta va h.k.) tegishli mablag'larni uning roziligini olmagan holda (akseptsiz tarzda) yechib olish.

8.4. Bankning ushbu Shartnomaning 8.3-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalanmasligi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

8.5. Qarz oluvchi tomonidan kredit va foiz to'lovlari mablag'larini qaytarish muddatlariga rioya qilinmagan taqdirda hamda ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganida Bank o'z ixtiyoriga ko'ra kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval undirish to'g'risida:

- a) ijro xati yozishni so'rab notariusga;

- b) hal qiluv qarori chiqarishni so'rab fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishi mumkin.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Shartnomaga asosan kredit oluvchi shaxs ta'minot turlaridan birini rasmiylashtiradi. Kredit shartnomalari kafillik shartnomasi barcha taraflar tomonidan imzolanib, garovga qo'yilayotgan mol-mulklar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilib, bankka taqdim etilgandan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.2. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" ga kirgan oilalarning farzandlari/xotin-qizlariga ajratiladigan ta'lim krediti bo'yicha garov va kafillik talab etilmaydi.

9.3. Hech bir tomon ikkinchi tomonning yozma rozilgisiz ushbu kredit shartnomasi bo'yicha huquqlarini uchinchi tomonga berib yuborish huquqiga ega emas.

9.4. Ushbu shartnomani imzolash bilan Kredit oluvchi o'ziga tegishli zaruriy shaxsiy ma'lumotlarni Bank tomonidan olinishi, qayta ishlanishi va/yoki talab qilinishi huquqini beradi.

9.5. Kredit shartnomani ijro etishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-323-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5203-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga budjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-82-son farmoni / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 527-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-

BANK _____
(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____
(imzo)

SHERIK QARZDOR _____
(imzo)

kontrakt asosida ta'lim olishi uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 457-son qaroriga rioya etadilar.

9.6. Shartnomaning ijrosi bo'yicha yuzaga kelgan nizolar tomonlarning o'zaro kelishuviga erishilmagan holda, sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

9.7. Kredit summasi va foizlarni qaytarish bo'yicha ishlab chiqilgan qaytarish jadvali shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.8. Keyingi o'quv yillari uchun to'lovlarni amalga oshirishda, Kredit oluvchi/Sherik qarzdor tomonidan shartnomada ko'rsatilgan barcha majburiyatlar bajarilgani inobatga olinib, qo'shimcha shartnomalar rasmiylashtiriladi.

9.9. Shartnoma _____ nusxada o'zbek tilida tuzildi va ular tomonlar uchun bir xil yuridik kuchga ega.

9.10. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-323-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5203-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga budget mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-82-son farmoni / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 527-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida ta'lim olishi uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 457-son qarori bilan tartibga solinadi.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«Bank»:	«Kredit oluvchi»:	«Sherik qarzdor»:
_____	Familiyasi _____	Familiyasi _____
(rahbar F.I.Sh. va imzosi)	Ismi _____	Ismi _____
_____	Otasi ismi _____	Otasi ismi _____
(bosh buxgalter F.I.Sh. va imzosi)	Kredit oluvchi imzosi:	Sherik qarzdor imzosi:
_____	_____	_____
(huquqshunos F.I.Sh. va imzosi)	Pasport ma'lumotlari:	Pasport ma'lumotlari:
h/r _____	_____	_____
MFO _____ STIR _____	_____	_____
Bankning manzili:	Kredit oluvchining manzili:	Sherik qarzdorning manzili:
_____	_____	_____
_____	_____	_____
Tel: _____	Tel: _____	Tel: _____

BANK _____
(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____
(imzo)

SHERIK QARZDOR _____
(imzo)

(Kredit oluvchi familiyasi, ismi, sharifi qisqartirilmagan holda, o'z qo'li bilan yozilishi shart)

Ushbu shartnomani o'qidim, shartnomadagi bo'lim va bandlar hamda undagi so'zlarning mazmuni, mohiyati aniq va tushunarli bo'lganligi uchun mazkur shartnomani imzolayman va uni so'zsiz bajaraman.

BPK: _____ muddati: ____/____/____ (imzo)

(Sherik qarzdor familiyasi, ismi, sharifi qisqartirilmagan holda, o'z qo'li bilan yozilishi shart)

Ushbu shartnomani o'qidim, shartnomadagi bo'lim va bandlar hamda undagi so'zlarning mazmuni, mohiyati aniq va tushunarli bo'lganligi uchun mazkur shartnomani imzolayman va uni so'zsiz bajaraman.

BPK: _____ muddati: ____/____/____ (imzo)

BANK _____
(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____
(imzo)

SHERIK QARZDOR _____
(imzo)